

## **BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA HARAKATLI O'YINLAR VA METODLAR ORQALI MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11246911>

**Asadova Shahlo Saidjon qizi**

*Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich*

*ta'lim yo'nalishi 52-21 guruh talabasi*

*shahloasadova2@gmail.com*

### **Annatotsiya**

*Matematika ko'pchilik o'quvchilar unchalik xushlamaydigan fanlar qatoriga kiradi, ular ushbu fanni qiyin va murakkab deb o'ylashadi. Bu fanning metodikasida ham mavzularni oson tushunib olishda yordam beruvchi metod va texnologiyalar mavjud. Bizning mazkur maqolamiz aynan shu mavzuga bag'ishlangan, ya'ni boshlang'ich sinflarni o'qitishda aynan masalalar yechish chog'ida qanday o'yinlar va metodlardan foydalanish samaraliroq? Biz shu haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz.*

### **Abstarct**

*Mathematics is one of the subjects that many students do not like very much, they think that this subject is difficult and complicated. In the methodology of this science, there are methods and technologies that help to understand the topics easily. This article of ours is dedicated to this topic, that is, what games and methods are more effective to use when solving problems in teaching primary classes, we will try to provide information about this.*

### **Анатотция**

*Математика – один из предметов, который многие ученики не очень любят, считают, что этот предмет трудный и сложный. В методологии этой науки существуют методы и технологии, которые помогают легко разобраться в теме. Данная наша статья посвящена этой теме, то есть какие игры и методы эффективнее использовать при решении задач в обучении начальных классов, мы постараемся предоставить информацию об этом.*

### **Kalit so'zlar**

*boshlang'ich ta'lim, pedagog, mahorat, didaktik o'yin, metod, texnologiya*

Bugungi kunda davlatimizda yosh avlodning bilim olishlari yoxud hunarli bo'lishlari uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda, fanlar tizimiga zamonaviy metod va texnologiyalar kirib kelmoqda, bularning barchasi Vatanimiz kelajagi bo'lmish yoshlarning ta'lim tizimiga qaratilayotgan katta e'tibordan dalolat beradi.

Barchamizga ma'lumki, maktab bosqichida o'tiladigan va ko'pchilik uchun murakkab bo'lgan asosiy fanlardan bittasi bu matematikadir. Biz mazkur maqolamizni aynan shu fanga bag'ishladik. Faqatgina boshlang'ich sinflarda masalalar yechish mavzusiga ko'ra ochib berishga harakat qilamiz. Masalalar yechish boshlang'ich sinflar uchun matematikaning eng asosiy qismi hisoblanadi. O'quvchi oddiy mashqlardan ko'ra masala yechishda bir qancha muammolarga duch keladi, aynan o'sha o'qituvchi to'g'ri yo'nalish bermasa, keyinchalik ham o'quvchi bu kabi muammoga qayta va qayta duch kelaveradi. Boshlang'ich sinflarda yoshiga ko'ra o'quvchilarga oddiy va murakkab masalalar beriladi, ushbu masalalar esa o'quvchilarning yanada bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Ayrim masalalarni yechishning bir qancha usullari mavjud, shularning barchasi o'qituvchi o'rgatishi va o'quvchi shu kabi masalalarni o'zi mustaqil bajarib ko'rishi zarur. Ko'p masala yechish o'quvchida masala yechish metodini shakllantiradi, boshqa masalalarni o'quvchi qiynalmasdan bir nechta usulda yecha olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari unda topqirlik va zukkolik singari ajoyib sifalar ham shakllanadi. Kichik yoshli o'quvchilarga masala yechish jarayoni biroz mushkul. Zerikarli mashg'ulot sifatida tuyulishi mumkin, lekin aynan shu o'rin o'qituvchidagi pedagogik mahorat o'quvchini aslo zeriktirmasligi zarur. Keyingi bermoqchi bo'lgan asosiy ma'lumotlarimiz aynan shu haqida, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika darslarida qanday didaktik o'yinlar va metodlardan foydalanish mumkin? Shu savolga birgalikda javob izlaymiz.

Hech kimga sir emaski, maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan o'quvchining shu davrgacha asosiy mashg'uloti faqat o'yin edi, endi biz o'quvchining birdan o'yindan uzib qo'ya olmaymiz, bu uning psixologiyasiga salbiy ta'sirini ko'rsatishi, o'quvchi butunlay o'qishdan sovub ketishi mumkin. Shuning uchun boshlang'ich sinflar metodikasining asosiy qismini o'yinlar tashkil qiladi. O'yinlar orqali o'quvchi oson va tez o'rgana oladi, shunisi bilan bu kabi metod va texnologiyalar ahamiyatlidir. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar ikki xil tasnifga egadir. Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin.

Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi:

- O'yinning vazifasi.
- O'yinning harakati.
- O'yinning qoidasi.
- O'yinning yakuni.

Har bir metod yoxud o'yinni boshlamasdan o'quvchilarga o'yinning shartlari, bajarish tartibi, baholash mezonlari tushuntirilishi zarur. Shunda o'quvchilarda o'yin davomida ortiqcha savol tug'ilmaydi va o'qituvchi o'zining ko'zlagan maqsadiga erishadi. Bu kabi qiziqarli o'yinlarga quyidagilarni namuna sifatida keltirishimiz mumkin.

- Masala yechish chog'ida o'quvchilar bilan og'zaki tarzda "Ishoralar" o'yinidan ham foydalanishimiz mumkin.

Namuna sifatida quyidagi masala berilgan bo'lsin: Anvarda 5 ta kitob bor, ukasida 7 ta. Har ikkalasida nechta kitob bor? Bu masalani yechishda biz qanday ishoradan foydalanamiz, deya o'qituvchi savol berganida o'quvchilar "+" ushbu ishorani baland ko'tarishadi.

Bu o'yin bilan o'quvchilarda masalani og'zaki tarzda yechish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Eng muhimi ularning kayfiyatlari ko'tariladi. Bundan tashqari ularda zukkolik va topqirlik shakllanadi.

- O'quvchilarning zehniyatini oshirishda qo'llaniladigan yana bitta o'yin bu "Matematik topishmoqlar" o'yini.

Ushbu o'yin orqali o'quvchida ham zukkolik va topqirlik, ham tezkorlik ham shakllanadi. Ushbu metodda o'qituvchi masalalarni topishmoq tarzida ham berishi mumkin. Bu o'yinga quyidagi namunalar keltirish mumkin:

O'ynar uchta qiz bola,

Go'yo ochilgan lola.

Do'stlari kelishdi beshta,

Aytingchi ular bo'ldi nechta. (8 ta)

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'qituvchi o'zining ijodkorligidan foydalanib oddiy masalalarni ham shu kabi she'riy yo'l bilan, topishmoq ko'rinishida berishi mumkin. Bu o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarni o'qitish bir muncha murakkab jarayon bo'lib o'qituvchidan mahorat va sabr talab qiladi. Ularga bir ma'lumotni yetkazishda turli o'yinlardan va metodlardan foydalanish samarali va yuqori natija beradi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z fani bo'yicha doimo yangiliklardan boxabar bo'lishi, yangiliklarga intilishi zarur. O'yinlar orqali bolalarni dars jarayonlariga qiziqtirish esa, albatta samarali natijalar beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Jumayev M. E. "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" Toshkent "O'qituvchi" 2004 yil

- Mavlonova R. A. Raxmonqulova N.X. “Boshlang’ich ta’lining integratsiyalashgan pedagogikasi” Toshkent “Ilm ziyo”, 2009 yil
  - Yo’ldoshev J. G’. Usmonov S. A. “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent “O’qituvchi”, 2004 yil
    - Suvonqulov A. K. Hamzayev H. X. “Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasidan amaliy mashg’ulotlar” Jizzax, 2006 yil
      - Suvonqulov A. K. Hamzayev H. X. “Boshlang’ich sinflarda matematika darslarida didaktik o’yinlar” Jizzax, 2007 yil